



## BOLALARNI TABIATNI ASRASHGA O'RGATISH VA JONIVORLARNI ASRAB- AVAYLASH RUHIDA TARBIYALASH.

**T.Yu.Ahmedov**

*UrDU, Pedagogika fakulteti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası  
o'qituvchisi,*

**M.N.Otajonova**

*UrDU, Pedagogika fakulteti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Bolalarga kunning davomiyligi, obi - havo, o'simliklar va hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar berib, ularga tabiatning bir qismi ekanligimizni, tabiatning ichki qadriyatları haqidagi g'oyalarni shakllantirishga, sayyoramizdagi barcha jonli va jonsiz hayot shakllariga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish. Bolalarni tabiat boyliklaridan oqilona va ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerakligi to'g'risida tarbiylash.*

**Abstract:** *Giving information to children about the duration of the day, obi - air, changes in the life of plants and animals, to help them to understand that we are a part of nature, to form ideas about the inner values of nature, respect for all animate and inanimate life forms on our planet. learn to deal with. Educating children about the need to use natural resources wisely and carefully.*

**Аннотация:** *Давать информацию детям о продолжительности дня, оби – воздухе, изменениях в жизни растений и животных, помочь им понять, что мы – часть природы, сформировать представления о внутренних ценностях природы, уважении для всех живых и неживых форм жизни на нашей планете научитесь с ними справляться. Воспитание детей о необходимости разумного и бережного использования природных ресурсов.*

**Kalit so'zlar:** *Ekologik loyiha, ekologik tarbiya, o'simlik hayvon, N.J.Isakulova, ekologik ta'lim, jonli va jonsiz tabiat, ekologik madaniyat, tamoyil, tushuntirish, o'rgatish, o'zlashtirish, ilmiylik prinsipi.*

**Key words:** *Ecological project, ecological education, plant and animal, N.J. Isakulova, ecological education, animate and inanimate nature, ecological culture, principle, explanation, teaching, mastery, scientific principle.*

**Ключевые слова:** *Экологический проект, экологическое образование, растения и животные, Н.Ж. Исакулова, экологическое образование, живая и неживая природа, экологическая культура, принцип, объяснение, обучение, овладение, научный принцип.*

Tabiatni asrash, uni muhofaza qilishga o'rgatish, umuman, ekologik tarbiya berish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga barcha predmet darslarida ushbu tarbiya elementlarini singdirish orqali ularda ekologik madaniyatni shakllantirish mumkin. Bunday o'qitishda pedagogik



texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi. O'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishda ularning xohishiga ko'ra individual tarzda, juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlash shakllaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Shuningdek, uy vazifalari ham hamma uchun yagona va majburiy bo'lmasdan, bir necha variantda tayyorlanishi va o'quvchilar o'z xohishiga ko'ra tanlashlari mumkin. Masalan:

1-variantda yangi mavzu yuzasidan o'quv materialini tayyorlash, savollarga javob topish, ob'ektning rasmini chizish;

2-variantda o'quv materialini mazmunidagi atama va tushunchalardan foydalanib krossvord tuzish;

3-variantda qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib, tabiat haqida hikoya tayyorlash.

Uy vazifalarining bunday shaklda berilishi o'quvchilarga o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda avval uy vazifasining yengilroq variantini, keyin murakkabroq variantini bajarishga o'tish, o'z kuchi va bilimini sinab ko'rish imkonini beradi. O'quvchining bu boradagi har bir yutuqi o'qituvchi tomonidan o'z vaqtida rag'batlantirib turilishi, yutuq va kamchiliklarning qayd etilishi, kamchiliklarni barham etish maqsadida uyushtirilgan yordam o'z samarasini beradi. Ta'lim-tarbiya sohasida pedagogik munosabatlarni demokratlashtirish uchun o'qituvchi:

- o'quvchilarning bilish faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish usullari;
- o'rganiladigan mavzuning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda turli qiyinchilikdagi o'quv topshiriqlari va ularni bajarish yuzasidan ko'rsatmalarni tayyorlash ko'nikmalari;

- o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati va olingan natijalarni tahlil etish, tegishli hollarda zarur o'zgartirishlar kiritish usullari;

- turli pedagogik muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ulardan eng oqilona usullarni egallagan bo'lishi lozim.

Pedagogik texnologiya jarayonini o'rganishning soddalashtirilgan tartibini quyidagicha tushunish mumkin:

- tushuntirish – o'quv materialining ma'no-mazmunini, undan foydalanish tartibini o'zi tushungan darajada boshqalarga yetkazish faoliyatidan iborat jarayon;
- tushunish – o'quv materialining ma'no-mazmunini idrok qilish, undan ko'rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish;

- o'rgatish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash;

- o'zlashtirish – tushunish, o'rganish orqali o'quv materialining ma'nomazmunini, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmalar hosil bo'lishi.

O'zlashtirish shartli ravishda quyidagi uchta darajaga ajratiladi:

1) o'rgatilgan bilim, ko'nikmalarni to'g'ri takrorlash.

2) ularni amaliy faoliyatda qo'llash, ulardan tegishli maqsadlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish;





3) ularni ijodiy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish asosida takomillashtirish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish;

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarning hammasida ham birdek qo'llaniladigan va ta'lim-tarbiya jarayonining tarixiy tarkib topishida va rivojlanib borishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan asosiy tarkibiy elementlar so'zlash, ko'rsatish va mashqlar bajarishdan iborat bo'lib, ular o'zaro quyidagicha ketma-ketlikda va bog'liqlikda amal qiladi.

Ekologik tarbiya, avvalambor, bolalarni insonparvarlik, xayrixohlik, hissiy munosabat va ularning atrofidagi dunyoga qiziqishini tarbiyalashga xizmat qiladi. Zero, atrof-muhitni bolaga ta'siri juda katta. Chunki har kuni bolalar u yoki bu shaklda atrof-muhitdagi turli narsalar yoki hodisalar bilan aloqaga kirishadilar ya'ni ular qushlarni, hasharotlarni, hayvonlarni, qishda, qor parchalarini, kuzda, sarg'aygan barglarni, yomg'irni kuzatishadi, tabiat haqidagi she'rlar va hikoyalarni tinglashadi, tabiat hodisalari, o'simliklarga g'amxo'rlik qilishni o'rganadilar. Tabiat bolalarni birinchi navbatda o'zining go'zalligi, ranglarining yorqinligi, xilma-xilligi bilan o'ziga jalb qiladi. Shu boisdan "Ekologik tarbiya maktabgacha yoshda, maktab davrida, maktabdan keyingi, mahalla, mehnat jamoasi hamda keksalik davrida turlicha mazmun, shakl va metodlar hamda yondashuvlarda amalga oshiriladi". Bolalar birinchi aniq bilim va tajribani ham shu tabiatdan oladi.

Atrof-muhit bilan bunday aloqa, bir tomondan, bolaning hissiy tajribasini boyitadi, boshqa tomondan, uning tasavvurini kengaytiradi va bolaning atrof-muhit to'g'risida turli savollari va qiziqishlarini paydo bo'lishiga katta yordam beradi.

Bolalar odatda juda qiziquvchan, tabiat hodisalari va narsalariga katta e'tibor bilan qaraydigan bo'ladilar. Bu esa ota-onalar va o'qituvchilar uchun bolani atrof-muhit to'g'risida yanada ko'proq bilim olishlari uchun munosib shart-sharoit yaratib berishni taqozo etadi. Ota-onalar va o'qituvchilar oldida turgan bunday vazifalar jumlasiga bolalarda atrof-muhit jonli va jonsiz narsalarga bo'lgan muhabbat va hurmat tuyg'usini rivojlantirish, ularning tabiat haqidagi o'z tasavvurlarini boyitish, bolaga nafaqat bilim berish balki o'z hissiyotlarini erkin ifoda etish imkoniyatini berish juda muhimdir. Shu boisdan ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish ularni o'zlarini va atrofida sodir bo'layotgan barcha narsani to'g'ri tushunishga o'rgatadi. Bolalarning o'zlari mehr va muhabbatga muhtoj. Shu bilan birga, ular barcha jonzotlarga befarq va beqiyos darajada o'zlarining mehrlarini berishga qodirdir. Qani endi ulardagi bu mehr-oqibatni saqlab qolishni imkoni bo'lsa. Buning uchun avvalo bolalarni tabiatda ham, odamlar orasida ham o'zini to'g'ri tutishga o'rgatish lozim. Bolaning mehribon, sabr-toqatli, tinch va osoyishta bo'lib o'sishi va baxtli bo'lishi uchun biz kattalar bolalik inson hayotining muhim qismi ekanligini esdan chiqarmasligimiz kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishda bolalar bilan ishlashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi usul va metodlarni ko'rib chiqishimiz e'tiborga molik. Atrof-muhitga ijobiy munosabat nuqtai



nazaridan metod - bu tarbiyachi va bolalarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lib, uning davomida ekologik bilim, ko'nikmalarni shakllantirish qobiliyatlari va atrof-muhitga munosabatni tarbiyalash jarayoni samarali amalga oshiriladigan usuldir. Atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishdagi texnika esa bu muayyan usulning o'ziga xos elementidir.

Atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish usulini tashkil etadigan texnikalar qanchalik boy va xilma-xil bo'lsa, o'quv va bilim vazifasi shunchalik muvaffaqiyatli hal qilinadi. Shu boisdan ham N.J.Isakulova "Uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berishda variativ didaktik funksiyalarni quyidagilardan iborat ekanligini alohida qayd etadi:

- ekologik mazmunda mashq bajarish, masalalar yechish, diktinat va bayonlar yozishda qo'shimcha topshiriqlardan foydalanish;
- ekologik mazmundagi darslarni fanlararo bog'lanishda turli uslublarning bir nechtasidan foydalangan holda tashkil etish;
- darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'quvchining turli qiziqishlari asosida turli uslublardan foydalanib olib borish;
- ekologik mazmundagi testlarni o'tkazishda mazmunning bir xilligiga e'tibor bergan holda savol-javoblar xilma-xilligiga erishish;
- fanlararo ekologik tarbiya berish yuzasidan o'quvchi bilimi, ko'nikma va malakalarini baholash xilma-xilligini inobatga olish.

Mazkur variativ didaktik funksiyalarning har biri bajarilishida bir vaqtning o'zida har xillikka erishishga e'tibor beriladi"<sup>140</sup> degan edi.

Atrof-muhit haqida fikrlashning asosiy shakllari va bolalar faoliyati uslublariga muvofiq 4 ta usul mavjud:

1. Atrof-muhit haqidagi vizual usullar (kuzatish, namoyish qilish, tekshirish). Vizual usullar - o'simliklar, hayvonlar, jonsiz va tirik tabiatning tabiiy hodisalari to'g'risida aniq ma'lumot to'plashning eng maqbul usullaridir.

Uning yordami bilan bola nafaqat ob'ektlarning tashqi parametrlarini (rangi, tuzilishi, hidi, shakli va boshqalar), balki ularning atrof-muhit bilan aloqalarini ham o'rganadi.

2. Atrof-muhit haqidagi yetarli darajada tasavvur hosil bo'lishi uchun og'zaki usullar (suhbat, hikoya, badiiy adabiyotni o'qish usullari: tushuntirish, ko'rsatma, pedagogik baho, savol, masalan uy gullari yoki uy hayvonlari haqida hikoya tuzish) ham muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Atrof-muhit haqidagi muhim tasavvurlarni shakllanishida amaliy usullar ham qo'l keladi. Amaliy usullar bu turli mashqlar, elementar tajribalar, modellashtirish, bolalar tajribasiga, amaliy vaziyatlarga, qidiruv harakatlariga, so'rovnomalarga asoslanib, modelga muvofiq ish tutishdir.

4. O'yin usullari esa bu atrof-muhit haqidagi didaktik o'yinlar, o'yin holati, o'yinchoqlar bilan harakatlar, harakatlarga taqlid qilish, yashirish va qidirish, ochiq

<sup>40</sup> Ismoilov A., Axadov R. Ekologik ta'lim-tarbiya. – T.: «O'qituvchi», 1997. -18-b..





maydonda o'ynash, epizodik o'yin texnikasi, topishmoqlardan iboratdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishda ekologik loyihalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik loyiha - bu avvalo tadqiqot jarayonida muayyan vazifalarni hal etishdir.

Ekologik loyihalarning vazifalar ko'lami har xil bo'lishi mumkin, u loyihaning vaqti, yoshi va shunga mos ravishda bolalarning imkoniyatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim dasturlarining mazmuni bilan belgilanadi (har qanday loyiha umumiy ta'lim maydoniga mos kelishi kerak). Ekologik loyihalar bolalar faoliyatining barcha turlari va barcha ta'lim sohalarini birlashtirishni o'z ichiga oladi, shuning uchun loyiha faoliyati davlat va jamiyat talablariga muvofiq yaratiladi. Zero, "...O'zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz - bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir".

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonidagi turli shakl va usullar bolalarning yosh xususiyatlariga qarab tanlanishi kerak. Kichik va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalar, tabiiyki eng oddiy kuzatish usullaridan foydalanadilar va o'z tadqiqotlari natijalarini asosan rasm va qissa shaklida umumlashtiradilar. Bolalarning yoshi qanchalik katta bo'lsa, o'qituvchining yetakchilik roli shunchalik kam bo'ladi, tadqiqotning hajmi esa shunchalik katta bo'ladi.

Ekologik loyihalarni amalga oshirishda ota-onalar ishtirok etishi ham muhim zarurat hisoblanadi. Bu, ayniqsa, bolalarni o'z ota-onalari bilan birgalikda hunarmandchilik, rasm chizish va birgalikda tajriba o'tkazishda juda muhimdir. Shu boisdan ham ota-onalarni turli darajadagi tanlovlar va ko'rgazmalarda faol ishtirok etishi juda muhimdir. Chunki ota-onalar ham o'z farzandlari bilan birgalikda turli darajadagi rasmlar, fotosuratlarini to'playdilar va farzandlari bilan birgalikda tabiat mahsulotlaridan hunarmandchilik buyumlarini tayyorlaydilar. Bu jarayonda har bir oilaning faol ishtiroki e'tibordan chetda qolmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik tarbiyasi barcha oila a'zolarining ekologik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan doimiy tarbiyalash jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir.

Ekologik loyiha natijalari turli xil ko'rgazmalar, bayramlar, ko'ngilochar tadbirlar, yarmarkalar, kitoblar va bukletlar dizayni va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni tarbiyalash ushbu yo'nalishdagi ishlar quyidagi tamoyillarni hisobga olgan holda amalga oshadi:

- Ilmiy ... Ilmiylik printsiplari bolalarda dastlabki ekologik bilimlar bilan tanishtirishni nazarda tutadi, ular bolaning harakatlari uchun motivatsiyani shakllantirish, bilimga qiziqishni rivojlantirish va uning dunyoqarashi asoslarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Hatto Ushinskiy ham "bolalar uchun fanni rad qilmaslikni", ya'ni "ilm-fanning turli sohalaridan bolaga va uning dunyoqarashini rivojlantirishga foydali bo'lishi mumkin bo'lgan xabarlarini" tavsiya qiladi. Shu bilan birga, u ta'kidlaganidek, bir tomondan, ilmiy bilimlarni bolalarning tushunchasi darajasiga sun'iy ravishda tushirmaslik kerak, boshqa tomondan,



boshlang'ich sinf o'quvchilariga ularning aqliy rivojlanish darajasidan yuqori bo'lgan bilimlarni bermaslik kerak.

- Mavjudlik printsipti. Ma'lum bir yoshdagi bola uchun materialning mavjudligi printsipti juda muhimdir va u ilmiy xarakter printsipti bilan chambarchas bog'liqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik ta'limidan ilmiy atamalarni chiqarib tashlash kerak, ammo ularning ba'zilarining mazmuni bolalarga tushunarli va jozibali shaklda tushuntirilishi ham mumkin.

- Insoniyat printsipti. Ushbu printsipt birinchi navbatda ekologik madaniyat tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Ta'lim nuqtai nazaridan uni qo'llash yangi qadriyatlar, iste'mol madaniyati asoslariga ega bo'lgan, o'z sog'lig'iga g'amxo'rlik qiladigan va sog'lom turmush tarzini olib borishni xohlaydigan shaxsni shakllantirishni anglatadi. Ekologik ta'limning mazmuni, shuningdek, bolaning tabiatning bir qismi sifatida inson to'g'risida va tabiatning ichki qadriyatlari haqidagi g'oyalarini shakllantirishga, sayyoramizdagi barcha hayot shakllariga hurmat bilan munosabatda bo'lishga yordam berishi kerak. Ekologik ta'lim metodikasini tanlashda insonparvarlik printsipti o'qitish va tarbiyalashning avtoritar modelidan shaxsga yo'naltirilgan modelga, kattalar va bola o'rtasidagi hamkorlik pedagogikasiga, o'qitishni interaktiv shakliga o'tishni anglatadi.

- Bashorat qilish printsipti. Bashorat qilish printsipti odatlarni o'stirishni va ba'zi bir kundalik harakatlarni atrof-muhit bilan bog'liq holda baholashni, tabiatga zarar yetkazadigan bo'lsa, o'z xohish-istaklarini cheklashni o'z ichiga oladi.

- ❖ Faoliyat printsipti. Faoliyatga asoslangan yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik ta'limning asosini tashkil etadi. Bola o'quv jarayonida o'rganadigan ekologik bilim uning atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha turli xil amalga oshiriladigan tadbirlarda faol ishtirok etish motivasiyasini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Faoliyat printsipti turli xil ekologik loyihalarning markazida joylashadi.

- ❖ Integratsiya printsipti. Integratsiya printsipti bolaning turli xil faoliyatlarini ekologlashtirishni nazarda tutadi.

- ❖ Izchillik printsipti. Izchillik printsipti (har bir keyingi shakllanayotgan g'oya yoki konsepsiya oldingisidan kelib chiqadi va butun tizim uning markaziy yadrosi vazifasini bajaradigan ma'lum bir boshlang'ich pozitsiyalarga tayanadi) bo'lsa, bilimlarni ketma-ket o'zlashtirishdir.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish juda ham murakkab jarayon hisoblanadi. Bu, bir tomondan, rasmiy mantiqning qat'iy doirasiga mos kelmasligi bilan bog'liq.

Boshqa tomondan, bola doimo kattalar tabiat hodisalari, narsalarga nisbatan elementar normalar va xatti-harakatlar qoidalarini qanday buzayotganini ko'radi: daraxt shoxlarini sindirish, axlatlarni dam olish joylarida qoldirish shular jumlasidandir. Bunday hollarda, agar bola bunga e'tibor bergan bo'lsa, siz unga kattalar noto'g'ri ish qilayotganini o'z vaqtida aytishingiz kerak bo'ladi. Inson tabiat boyliklaridan oqilona va ehtiyotkorlik bilan foydalanishi kerak, shundagina tabiat ham





insonni saxiylik bilan mukofotlaydi. Shu boisdan ham bolaning ekologik madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan barcha harakatlar kattalarni befarq qoldirmasligi kerak.

Bugungi kunda “ekologik ta’lim” - dolzarb muammolarni hal etishda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu o’rinda nega aynan bugungi kunda ekologik ta’lim va tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda? - degan o’rinli savol tug’iladi.

Odamlarning bilimsizligi atrof - muhitni buzilishiga olib kelmoqda, natijada o’simlik va hayvonlarning ayrim turlari yo’q bo’lib ketmoqda, bu esa ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi albatta.

Ekologik ta’lim - bu ma’naviyat, aql, axloq tarbiyasi bo’lib, uni eng kichik yoshdan boshlash talab etiladi. Tabiat bolaga turli tovushlar, hidlar orqali katta ta’sir ko’rsatib uni nafaqat quvontiradi yoki hayratga soladi balki uni atrofdagi olam go’zalligi haqida tuyg’ularini tarbiyalaydi. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish vazifasini amalga oshirish tamoyillari quyidagilardan iborat: material hajmini bosqichma-bosqich oshirish; tabiiy muhitdan birlamchi foydalanish: bolalar bog’chasi va maktab, mahalla hududlarining yashil maydonidagi o’simliklar va hayvonlar; bolalarni sezgir taassurotlarining xilma-xilligiga, so’ngra aniq g’oyalarga, keyin g’oyalarni umumlashtirishga o’tish; amaliy faoliyatning har xil turlaridan keng foydalanish; bolalarda qiziqish va ijobiy his-tuyg’ularni uyg’otadigan metodlardan foydalangan holda kognitiv materiallarni taqdim etish va boshqalar shular jumlasidandir.

N.J.Isakulova fikricha, “Atrofimizdagi tabiat haqidagi bilimlar quyidagicha o’zlashtiriladi:

- jonli, jonsiz tabiatning o’zaro aloqadorligi va farqi;
- tabiat jismlari va ularning xususiyatlari;
- tabiat komponentlari va ularning o’zaro aloqadorligi;
- tabiat hodisalari va ularning ta’siri;
- koinot va uning Yer sayyorasi bilan aloqadorligi;
- O’zbekiston tabiati va uni muhofaza qilish;
- atrofimizdagi tabiatga oqilona munosabatlarni shakllantirish;
- hayvon va o’simliklar ishtirokida mashq-masalalar yechish, rasm va haykallarga ishlov berish, ijodiy topshiriq va muammoli savollarni hal etish”<sup>41</sup>

Bolalarda atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish ekologik ta’limsiz amalga oshmaydi. Masalan, sinfda tabiat burchagi yaratildi, u yerda gullarga g’amxo’rlik qilish paytida bolalar gullarni to’g’ri parvarish qilish qobiliyatiga ega bo’ladilar, har bir gul o’ziga xos go’zalligi va g’amxo’rlikka muhtojligini bilib oladilar. Amaliy faoliyatda bolalarning individual namoyon bo’lishi ularning ekologik tarbiyasi va madaniyati darajasining ko’rsatkichidir. Odatda biz bolalarning e’tiborini gulzorlarga, daraxtlarga, qushlarga, yilning turli vaqtlarida sodir bo’ladigan o’zgarishlarga qaratamiz. Bolalar o’qituvchi yordamida kunning davomiyligi, ob-havo,

<sup>41</sup> .Isaqulova N.J. Ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari. 2010. -B.40.



o'simliklar va hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar to'g'risida xulosa chiqaradilar. Shuningdek, bolalarda kognitiv qiziqishni rivojlantirish uchun qum, yer, loy, qor, muz, suv xususiyatlari bilan tanishish bo'yicha muhim tajribalar o'tkaziladi. Bunday tajriba asosida biz kuzatilgan hodisaning sababini ochib beramiz, bolalarni mustaqil fikr va xulosalar chiqarishga o'rgatamiz. Bu jarayonda tabiiy materiallar bilan o'yinlar tashkil etiladi. Shuningdek, sayr qilish paytida didaktik o'yinlar o'tkaziladi, masalan: "Mevaga nom bering", "Mavsumlar", "Ta'rifi bo'yicha toping", "Bu sodir bo'lganda" va boshqalar. Shamol bilan ishlaydigan o'yinchoqlar yordamida biz shamol yo'nalishi va uning kuchini aniqlashga harakat qilamiz. Biz o'quvchilarda atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishda badiiy adabiyotdan ham samarali foydalanishga harakat qilamiz.

Tabiat haqidagi badiiy-falsafiy g'oyalar bolalar hissiyotlariga chuqur ta'sir qiladi. Bular Xudoyberdi To'xtabayev, Abdulla Suyumov, Tuxta Boboyev, Xakimjon Karimov, Baxodir Sarimsokov, Safo Ochil, Qozoqboy Yuldoshev, Said Alimov, Askar Zunnunov, Xamidulla Boltaboyev, Tulan Nizom va boshqalarning asarlarida yorqin ifodalangan. Bolalar bilan bu badiiy adabiyot durdonalarini o'qiganimizdan so'ng, biz ular bilan yaqindan suhbat o'tkazamiz, savollar beramiz. Bu suhbat asnosida bolalar atrof-muhitdagi go'zallik, quvonchni, zavqni ifoda etadilar.

Agar o'quvchilarning o'qish motivlari, mashg'ulotlarning boshidan oxirigacha diqqatini jamlashi, eslab qolishi, xotirada saqlashi va o'rganganlarini amalda mustaqil qo'llay olishi kabi ko'rsatkichlari muntazam ravishda masalan, 100 foiz bo'lganda edi, ana shundagina ularning o'zlashtirishlarini nazorat qilishga vaqt sarflamaslik mumkin bo'lar edi. Lekin amalda bunday emasligi hammaga ma'lum, shu sababdan hozirda nazoratning reyting usulini yanada takomillashtirgan holda amalga joriy qilinmoqda. Mavjud pedagogik texnologiyalar aslida yuqorida aytilgan so'zlash, ko'rsatish, mashqdan iborat uchta tarkibiy elementning har turli kombinatsiyalarini tashkil qiladi. Ular bir-biridan ta'lim-tarbiyaning ayrim yo'nalishiga, mazmuniga va usullariga alohida e'tibor berilgani hamda unga muvofiq maqsadlarga qaratilgani bilan farqlanadi. Har qanday tarbiya turi singari ekologik tarbiya ham bolaga dastavval oilada, so'ng maktab partasiga ilk bora o'tirishni o'rganganidanoq o'rgatib boradi. Ekologik tarbiyani nafaqat tabiatshunoslik yoki ekologiya darslarida, balki barcha dars soatlarida amalga oshirish mumkin. Masalan: boshlang'ich sinflarning ona tili va o'qish savodxonligi, tabiiy fanlar darslarida, birinchi sinfda mashqlarni bajarish jarayonida bevosita qushlar, gular, hayvonlar bilan bog'liq kichik hajmdagi sodda matnlarni yozdirish bilan birga ularning mohiyatini bola ongiga to'g'ri yetkazish orqali ekologik tasavvurlarini boyitish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik madaniyatni shakllantirishning yo'llaridan biri sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar jarayonidir. Buning uchun bugungi kun o'qituvchisi izlanuvchan, harakatchan, ijodkor bo'lsa, u ta'lim bergan o'quvchilar har tomonlama yetuk, bilimdon bo'lishiga shubha yo'q. O'quvchi avvalo shuni esda tutib, tadbirlar mavzularini tuzishda mavzu mohiyatidan kelib





chiqib uning mazmunini ochishga asosiy diqqat e'tiborini qaratmog'i lozim: "Inson onadan tug'ilib olamga kelgan birinchi daqiqalaridanoq tabiat ehsonidan bahramand bo'ladi. Ya'ni ilk bor havodan to'yib nafas oladi. Insonni ona tug'ib tarbiyalasa, tabiat o'stiradi. Shuni uchun uni "Ona – tabiat" deb ataladi. Ona tabiat mehrimizga, shafqatimizga zor bo'lib qoldi. Ko'pgina hayvonlar, turli nodir o'simliklar qirilib ketmoqda. Yakka-yu yagona Orol dengizimiz ham halokat yoqasida turibdi. Biz hozirgi kunda har bir daraxt, buta, giyohga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishimiz darkor. Yuqoridagi fikrlar bola ongiga yetib bora olsa, uning qalbida tabiatimiz halokatiga nisbatan achinish, mehr – shafqat, uni asrash hissi uyg'onsa – bu bizning, ya'ni o'qituvchilarning baxtimizdir. Sinfdan tashqari o'qish jarayonida o'qituvchining asosiy vazifasi – o'quvchilarni ijtimoiy ommabop, tabiatshunoslik adabiyotini o'qishga ehtiyoj hosil qilishdan iborat bo'lmog'i lozim. Ekologik tarbiyani singdirishda ommaviy tarzda sinfdan tashqari ishlar, ekskursiyalar, konkurslar, diapozitiv va kinofilmlarni ko'rsatish bilan tematik kechalar, har xil tadbirlar, ("Qushlar bayrami"), ("Gullar bayrami"), daraxtlar o'tqazish va boshqalarni amalga oshirish katta ahamiyatga egadir. Ularni o'tkazishdan maqsad – sinfdan tashqari ishlarga iloji boricha ko'proq sonda o'quvchilarni jalb qilish, ularda qatnashishga qiziqish va xohishlarini uyg'otish, bolalar faolligini yo'lga qo'yishga yo'naltirmog'i lozimdir. Ekologiya bo'yicha sinfdan tashqari ishlar va maktabdan tashqari ishlarda olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va konkretlashtirish, atrof – muhitni o'rganishga qiziqish uyg'otish, O'quvchilar faolligi va mustaqilligini rivojlantirish, bo'sh vaqtni tashkil etish imkoniyatini beradi. Bu ishlarning tarbiyaviy ahamiyati ayniqsa kattadir. Ular o'quvchilar xulq – atvoriga ta'sir ko'rsatadi, moddiy dunyoqarashni va mehnat madaniyatini shakllantiradi, bilishga qiziqishini va mutaqil kuzatish ko'nikmalarini rivojlantiradi, jamoatchilik hissini va tabiatga muhabbatni tarbiyalaydi. Demak sinfdan tashqari tadbirlar jarayonida o'quvchilarga ekologik tarbiya berish o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositalaridan biridir. "Gullar bayrami" tadbiri yordamida bolalarni ekologik ruhda tarbiyalashning qulay imkoniyatlari yaraladi ushbu tadbir sinf yoki maktablararo o'tkaziladi. Tadbirga tayyorgarlik bir necha hafta oldin boshlanadi. Bolalar o'zlari o'stirib, parvarish qilayotgan turli gullar bilan tadbirga ishtirok etadilar. Bu tadbir vositasida bolalarga o'simliklarga nisbatan mehr ortadi ularni parvarish qilib, yanada ko'paytirishga o'rganadilar. Eng muhimi ekologiyani asrashga o'z hissalarini qo'sha olishga o'rganadilar Ta'lim jarayonida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning va ularga ekologik tarbiya orqali ekologik madaniyatni shakllantirishning xilma – xil yo'llari mavjud. Mashg'ulotlar o'tkazish, o'yinlari o'ynash, ekskursiya, mehnat, kundalik hayoti shular jumlasidandir. Tabiatga doir dars va boshqa mashg'ulotlar bolalarga ta'lim va tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Dasturda belgilangan bilim va malakalarni tarbiyachi ta'lim tamoyillari asosida bolalar o'zlashtira oladigan qilib tashkil etadi. Kundalik hayotda kuzatish, o'yin mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari, tushuncha va tasavvurlari yig'ilib boradi. Ularni aniqlash va tizimlashtirish imkonini beradi. Bu mashg'ulotlarning ayrimlarida boshlang'ich bilimlar



shakllantiriladi. Masalan: Endigina maktab ostonasiga qadam qo'ygan bola hali ko'p narsalarni ongli ravishda anglay olmaydi. U o'zi bilib bilmagan holda daraxt shoxlarini sindirish yoki maktab bog'ini bezab turgan gullarni sindirish tabiiy bir holdir. Har bir pedagog, xususan boshlang'ich sinf o'qituvchisi buni oldini ola bilmog'i darkor. Bu esa o'z navbatida ekologik madaniyatni tarbiyalashga ilk qadam hisoblanadi. Mashg'ulotlar davomida o'qituvchi bolaga o'simliklarning inson hayotida tutgan o'rnini sodda, hayotiy misollar yordamida tushuntira olishi lozim. Yoki yana bir oddiy misol. O'quvchining partaga, kitob betlariga chatib bo'yab tashlashi ham sir emas. Mohir pedagogdan esa bolaga maktab hayotining ilk kunlaridanoq bu odatlarning noto'g'ri ekanligini uqtirish talab etiladi. Ana shu parta yoki kitobning tayyor holga kelishi uchun qanchadan – qancha daraxt – yog'ochning, o'simlikning nobud bo'lganligini va bu jarayonda ko'plab kishilarning mehnati singanini bolaga ongli etkaza olish muhimdir. Bunga bir vaqtning o'zida nafaqat ekologik tarbiya, balki axloqiy, mehnat va iqtisodiy tarbiya ham amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar davomida o'qituvchi kuzatish, rasmlarni ko'rish, badiiy asarlarni, hikoyalarni o'qish, diafilm va shunga o'xshashlarni ko'rsatishdan foydalanadi. 1-sinf dan boshlab mashg'ulot o'tiladigan sinf xonasida "O'lkashunoslik burchagi"ni tashkil etish, taniqli shoir va olimlarning tabiatga oid she'rlari, fikrlari, hikoyalarni to'plash va ularda mashg'ulotlar jarayonida foydalanish yaxshi samara beradi. Buni anglagan o'qituvchi sinf xonasida maxsus tabiat muzeyini tashkil etsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kishilarning mehnat faoliyatlari bilan tanishtirish, o'lkashunoslikka doir materiallarni yig'ish, hikoya mazmuniga doir o'simlik va hayvonlarning rasmini chizish, applikatsiyalar, gerbariyalar, albomlar tayyorlash ishlariga o'quvchilarning diqqatlari jalb etib kelinmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiat, uning boyliklarini muhofaza qilishga o'rgatishda "Yashil olam qo'riqchilari", "Biz tabiatda yashaymiz va mehnat qilamiz" kabi to'garak faoliyatini yanada yaxshilash va ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida bolalarni tevarak – atrof bilan tanishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bulardan tashqari tabiatni sevish, uni muhofaza qilish ishlarida faol qatnashishlarini tashkil qilish uchun o'quvchilarning ota – onalari bilan yaqindan aloqa o'rnatish, ularga bu borada tegishli maslahat, yo'llanmalar berib boorish ham yaxshi natija beradi. Bu borada o'qituvchi oila bilan hamkorlikda ish olib borishi yaxshi natija beradi.

**Xulosa.** Umuman, maktab o'quvchilarining ekologik ta'lim-tarbiyasi quyidagi tuzilish va tizimda olib borilsa, uning samaradorligi ta'minlanadi: ekologik his-tuyg'u, ekologik idrok, ekologik tasavvur, ekologik tushuncha, ekologik bilim, ma'lumot, ko'nikma, malaka, odat, ekologik madaniyat (mahorat) va hokazo. Tabiatni muhofaza qilish hozirgi zamonning asosiy masalalaridan biri bo'lib qolganligi o'quvchi ongiga singdiriladi. Haqiqatdan ham, tabiiy boyliklardan haddan tashqari ko'p darajada foydalanish, yangi yerlarni rejasiz o'zlashtirish oqibatida, ekologik muvozanat keskin o'zgardi, atrof-muhit ifloslandi. Ekologik tarbiyada insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatlari tarbiyalanib, o'quvchilar ongiga yoshligidan singdirib boriladi. Ekologik





ta'lim-tarbiya maktabda barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Isaqulova N.J. Ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari. 2010. B.40.
2. X.S Yo'ldoshev, Sh.SH Avezov. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari. T.:
3. Djabborova X.D. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim -tarbiya berishning o'ziga xosligi. T.: O'qituvchi. 2000.
4. O.U Xasanboyeva, X.J.Djabborova Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. T.: Cho'lpon. 2007.
5. H. Haydarov, S.Nishonova Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof-tabiat bilan tanishtirish. T.: O'qituvchi. 1992.